

## E'LON!!!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 12 noyabrdagi PF-6110-son Farmonida 2021 yildan boshlab olis va chekka hududlarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar shifokorlar "Qishloq shifokori" dasturi asosida ishga qabul qilinganda ularga kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million so'm miqdorida bir martalik pul mablag'lari, uy-joyi bo'lmaganlarga esa 3 yil davomida xizmat uy-joylari beriladi yoki bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik ijara to'lovlari Davlat budjetidan kompensatsiya to'lash belgilangan.

Shu munosabat bilan Surxondaryo viloyatidagi olis va chekka hududda joylashgan 35 ta mahalladagi oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlarida vrachlarga bo'lgan ehtiyojni qoplash maqsadida vrachlar ishga qabul qilinmoqda.

Hozirgi kunda Boysun tumanidagi "Machay" oilaviy shifokorlik punktiga 1 nafar va Uzun tumanidagi "Tolto'g'ay" oilaviy shifokorlik punktiga 1 nafar vrachlarga ehtiyoj mavjudligini inobatga olib, oliy ma'lumotli shifokorlarni "Qishloq shifokori" dasturi doirasidagi imtiyozlar asosida ishga taklif etamiz.